

TA'LIM, TARBIYA VA INNOVATSIYALAR

III son, Fevral

BOBURNING ILMIY MEROSIGA DOIR TADQIQOTLAR

Abduhamidov Doniyorek Yodgorxoja o‘g‘li

Namangan davlat universiteti, Tarix yonalishi talabasi

Tel +998941157045

E-mail: doniyorbekabdulhamidov@gmail.com

Annotasiya: Ushbu maqolada Boburiyalar imperiyasining asoschisi, shoh va shoir Zahiriddin Muhammad Boburning ilmiy merosi yuzasidan G‘arb va Sharq olimlari tomonidan olib borilgan tadqiqotlar to‘g‘risida ma‘lumotlar berilgan.

Kalit so‘zlar: Zahiriddin Muhammad Bobur, “Boburnoma”, “Mubayyin”, Turkiy xrestomatiya, Aruz risolasi, Herman Vamberi, P. de Kurteyl, Efinston, Vortolomey D’erbelo, Vitsen, Ilminskiy, Samoylovich, Klaport.

Zahiriddin Muxammad Bobur adabiyot, san’at, tarix fanining turli sohalarida bebahol asrlar yaratgan. Shubxasiz uning eng katta ilmiy merosi “Boburnoma”dir. Yevropa sharqshunos olimlari P. de Kurteyl, Herman Vamberi, Efinstonlar bu asarni Sezarning “Xotiralar” kitobi bilan tenglashtirgani ham bejiz emas.

Yevropaga Zahiriddin Muxammad Bobur haqida birinchi bo‘lib fransuz sharqshunosi Vortolomey D’erbelo (1621-1695) ma‘lumot beradi. Derbeloning “Sharq kutubxonasi” asarida Boburning hayoti, davlat va harbiy mahorati, adabiyot va san’atga qiziqishi haqida ma‘lumotlar berilgan. “Boburnoma”ni Yevropa olimlariga ilk bor tanishtirgan olim gollandiyalik Nikolas Vitsendir. U 1705-yilda yozgan asarida Farg‘ona vodiysi geografiyasi tasvirlarini tarjima qilib, Amsterdama nashr ettiradi. Albatta, bu asardagi ma‘lumotlarda “Boburnoma”ga tayangan. 1733-yilda sharqshunos olim A.Longperye o‘zining “Xatti Boburiy” haqida maqolasini e’lon qiladi. Sharqshunos olim Anri Klaport “Boburnoma”ni birinchilardan bo‘lib, fransuz tiliga tarjima qilgan va tadqiq qilgan. 1824-yili A. Klaportning Sulton Bobur yoki Boburnoma tarixiga oid kuzatishlar maqolasi chop etildi. Klaport Yevropa sharqshunosligida birinchi bo‘lib, “Boburnoma” haqida to‘liq fikr yuritgan.

Bobur qo‘lyozmalarini to‘plash, uning ijodiy merosi bilan qiziqish Rossiyada XIX asrdan boshlangan. Rus olimi I.Beryozin 1857-yilda chop etilgan uch jildli “Turkiy xrestomatiya”ga “Boburnoma” va “Mubayyin” asarlaridan ham ayrim parchalarni kiritgan. Rus olimi, akademik A.N.Samoylovich I.Beryozin haqidagi maqolasida “Turkiy xrestomatiya” nuqsonlardan xoli bo‘lmasa-da, unga kirgan namunalardan ayrimlari, masalan, “Mubayyin” asari oldin hech qayerda nashr qilinmagani bilan alohida ahamiyat kasb etishini ta’kidlaydi. 1857-yili rus olimi N. Ilminskiy Qozonda “Boburnoma”ni nashr qildiradi. 1917-yilda Samoylovich Bobur devonining Parij va Hindiston nusxasi “Собрание сочинений императора Бабура” to‘plamini nashr qildiradi. A.N.Samoylovichdan sal oldin, ya’ni 1910-yilda ingliz olimi D.Ross Bobur devonini Rampur (Hindiston) nusxasi asosida

TA'LIM, TARBIYA VA INNOVATSIYALAR

III son, Fevral

qo'lyozma faksimila bilan birga Kal'kuttada nashr qildirgan edi. 1911-yilda A.N.Samoylovichning bu haqdagi maqolasi ham e'lon qilinadi [1. 120-b.].

1888-yil "Osiyo jurnali" (Journal asiatique)ning ikkinchi jildida sharqshunos Jyul Darmstetye o'zining "Kobul yozuvchilari. Boburshoh va boshqa mo'g'ul shahzodalarining qabr toshlaridagi bitiklar" nomli maqolasini e'lon qilganligi, boburiylar barpo etgan maqbaralarda bitilgan so`zlar ma'nosi bilan tanishishga yordam beradi. Ma'lumki, Boburning "Aruz risolasi" asari o'zbek, arab va boshqa turkiy xalqlar she'riyati qonuniyatlarini o`rganishda muhim ahamiyatga ega bo`lgan qo`llanmadir. Bu asar qo'lyozmasining hozirgacha saqlanib qolganligi ilmiy jamoatchilikka ma'lum bo`lmasligi mumkin. Qo`lyozmaning bir nusxasi Parijdagi Milliy kutubxonada saqlanib kelinayotgani haqida 1923-yil turk olimi M.F.Ko`prulu ilk bor ma'lumot beradi. Fransuz sharqshunosi Edgar Bloshe o'zining Parijdagi "Milliy kutubxonada saqlanayotgan qo`lyozmalar katalogi" kitobida "Aruz risolasi"ning ushbu qo`lyozmasiga alohida to`xtalib o'tadi. Hind olimi, Kashmir universiteti professori Muhobbul Hasan "Boburnoma" hususida fikr bildirarkan, bu asarning Boburshoh shaxsiyati va davlat tizimini o`rganishidagina emas, balki Hindiston tarixi, geografiyasi va madaniyati, o`tmishini o`rganishda ham qimmatbaho manba ekanini, Hindistonni, uning xalqi hayotini tasvirlashda muallif idrokinining naqadar o`tkirligini ta'kidlab o'tadi.

XX asrga kelib shoir she'rlarini nashr etish an'anasi dastavval D.Ross (1910) boshlagan bo'lsa, so'ngra F.Ko`prulu (1915), A.Samaylovich (1917), S.Asimjonova va A.Qayumov (1965), S.Hasanov (1982), Sh.Yorqin (1983, 2008), A.Abdug'afurov (1994), B.Yujel (1995), H.Muhammadxo'jayev (1996), E.Ochilov (2007), B.Rahmonov (2008), A.A'zamov (2014) kabi olimlar tomonidan amalgalashdi.

F. Kōprulu o'zi topgan Bobur kulliyotida "Risolayi volidayi" asari shuningdek, o'zbek, fors tilifda yozilgan she'rlar to'plami, o'zbek tilida nasr va nazmda bitgan maktub, fors tilida yozilgan maktubdan parcha hamda "Aruz risolasi" borligini qayd etadi. Maqolada shoir she'riyatini Husayn Boyqaro ijodi bilan qiyoslash orqali ustunlik jihatini ko'rsatadi. Olmoniyalik olma, doctor Annamarie Shimmel ham o'zining "Boburshoh va oilaviy iste'dod haqida ma'lumot beradi.

1930-yili fransuz olimi Fernard Grenardning "Bobur. Hind imperiyasining asoschisi" (Baber. Fondateur de l'Empire des Indes. – Paris: 1930. – 179 p.) nomli risolasi nashr etilgan. Kitob 10 bobdan iborat bo`lib, unda Boburning bolalik vaqtidan to umrining so`nggi davriga qadar boshidan kechirgan voqealar tarixiy-badiiy asnoda hikoya qilingan. Grenardning ushbu risolasi "Boburnoma"ga hamohang bo`lib, undagi voqealarga monand keluvchi ilmiy-ommabop ocherklardan, Boburning Samarqandni tashlab chiqqan, Andijonni qo`ldan chiqargan paytdagi holatini quyidagicha tasvirlaydi: "Orzu-umidlari chilparchin bo`lgan Bobur orqaga qaytadi. Bahor fasli edi, u tog`asi yurti Toshkent tomon yo'l oldi. U ezilgan ko`ngliga taskin berish niyatida o'zining quyidagi misra bilan boshlanuvchi g`azalini bitadi:

Jonimdan o`zga yori vafodor topmadim,

TA'LIM, TARBIYA VA INNOVATSIYALAR

III son, Fevral

Ko`nglumdan o`zga mahrami asror topmadim [1. 120-bet.].

Shotlandiyalik davlat arbobi va tarixchi Maunstyuart Elfinston (1779-1859) “Boburnoma”ni “Osiyoda yagona, chinakam tarixiy tasvir namunasi” deb baholasa, rus sharqshunos olimi, Sankt-Peterburg akademiyasi akademigi Vasiliy Bartold (1868-1903) “Turkiy nasrning mumtoz realistik namunasi”, deb ta’riflaydi. “Boburnoma”ning mazkur italyancha tarjimasiga amerikalik sharqshunos olim V.M.Tekston tomonidan amalga oshirilgan inglizcha nashr “The Baburnama. Memories of Babur” (1996) asos qilib olingan bo‘lib, tarjimon fikriga ko‘ra, u Bobur mirzo yodnomalarining barcha xususiyatlarini imkon qadar saqlab qolgan. Garchand “Boburnoma”ning A.Beverij tomonidan tayyorlangan inglizcha tarjimasi (London, 1922) ko‘plab xorijiy tillardagi nashrlar uchun asos vazifasini bajargan bo‘lsa-da, V.M.Tekston tarjimasi mukammallik jihatdan undan farq qiladi. Shu bois italyancha tarjimaga A.Beverijning tarjimasidan roppa-rosa 75 yildan keyin, 1996-yilda professor Viler Tekston tomonidan uchinchi bor yaratilgan “Boburnoma”ning mukammal inglizcha tarjimasi asos qilib olinadi. F.Pastore kitob so‘nggida yozgan sharhida “Boburnoma” o‘z davrining kundalik hayotini qayta tiklashga imkon beradigan, Islom tamadduniga xos avtobiografik asarning ilk rostgo‘y namunasi ekaniga alohida urg‘u beradi. Bu bekorga emas. Zero, Bobur hazratlari o‘zining bu hayotnomasidagi har bir so‘zi rost yozilishini maqsad qilib qo‘yanini ta’kidlab o‘tgan. Tarixiy ma'lumotlarga ko‘ra, Bobur tiriklik paytida ikkita devon tuzgan. Ularning birinchisida Movarounnahr va Afg'onistonda, ikkinchisiga Hindistonda yozgan she'rlarini kiritgan. Bu haqida “Boburnoma”ning 925-hijriy, 1519-milodiy voqealari bayonida shunday deyiladi: “Hofiz Mir kotibning og'a-inisi Samarqandtin kelib erdi, bu fursatta Samarqandg'a ruxsat berib, Po'lod Sultong'a devonimni yibordim”. Bobur devoni Sharq mumtoz lirik janrlardagi asarlar majmuasidan iborat to'plam. Hozirgacha dunyo qo'lyozma fondlari va kutubxonalarida Bobur devonining 9 ta qo'lyozma nusxalari aniqlangan. Hindiston milliy kutubxonasida saqlanyotgan notugal, lekin shoir ijodiy merosini aniqlashda muhim bo'lgan bu qo'lyozma chiroyli ta'liq xati bilan ko'chirilgan. 1826-yilda J. Leyden va V.Erskin amalga oshirdi. F. Talbot esa mazkur nashr asosida 2-marta (1878, 1909) uning qisqartirilgan nashrlarini chop ettirdi. 1921-yilda inglez sharqshunosi A. Beverij “Boburnoma”ni mustaqil suratda asl nusxadan qayta tarjima qildi. Birgina Angliyada “Boburnoma” tarjimalari to‘qqiz marta nashr etilgan [3. 336-b.].

Bobur asarlarini tadqiq etish, ilmiy muomalaga olib kirish rus boburshunoslida ham eng asosiy masalalardan hisoblanadi. Boburni o‘rganish 1857-yili Nikolay Ilminskiy sa'y-harakatlari bilan boshlangan bo‘lsa, keyinchalik Bobur asarlarini o‘rganish rus sharqshunoslaring eng muhim va sevimli ishiga aylandi. Uning asarlarini nashr etish, tarjima qilish va o‘rganishni ingliz va rus sharqshunoslari uchun burch, sharaf va saodat deb bilgan Aleksandr Samoylovich shoirning “Majmuai ash’ori Bobur podshoh” deb nomlangan she’riy to‘plamini nashr qiladi va ularning rus tilidagi tarjimasini taqdim etadi. “Men – Majnunman, Turkiston – men uchun Laylo” deb o‘ziga ta’rif bergan bu sharqshunos olimning Bobur ijodini tadqiq etishdagidagi o‘rnii muhim [4. 208-bet.].

TA'LIM, TARBIYA VA INNOVATSIYALAR

III son, Fevral

Ma'lumki, "Boburnoma" qo'lyozmalari matnida ba'zi yillar (1504-1505, 1509-1518, 1520-1524) tafsiloti uchramaydi, 1508 va 1520-yil voqealari bayoni tugal emas. Mana shu uzilish bo'lgan o'rinalarni ingliz sharqshunoslari boshqa tarixiy manbalar asosida ma'lum darajada tiklaganlar. "Boburnoma" forschaga (1586), undan parchalar Vitsen tomonidan golland tiliga (1705), A. Keyzer tomonidan qisqartirilgan holda nemis tiliga (1828), Pave de Kurteyl tomonidan to'la holda fransuz tiliga (1871) tarjima qilingan. "Boburnoma"ni tarjima qilish va tadqiq etishda, shuningdek Afg'oniston (Abdulxay habibiy), Pokiston (Rashid Axtar Nadviy, Shoh Olam Mavliyot), Hindiston (Mirzo Nasriddin Haydar, Muhibbul Hasan Rizviy), Turkiya (R. R. Arat va N. I. Bayur) kabi mamlakatlar olimlarining xizmati ham katta. Rus sharqshunoslari (N. I. Pantusov, S. I. Polyakov, V. Vyatkin) ham "Boburnoma" dan parchalarni tarjima qilganlar [5. 112-b.].

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Вохидов Р. Биз билган ва билмаган Бобур. Адабий уйлар. – Т.: "Маънавият", 2008.
2. Муҳаммад Хайдар мирзо. Тарихи Рашидий. – Т.: "Sharq", 2010.
3. Захириддин Муҳаммад Бобур. Бобурнома. – Т: Шарқ, 2002.
4. Иномхожиев Р. XVI аср Ҳиндистон адабий ҳаётида туркий-форсий икки тиллилик. – Т.: Фан, 1993.
5. Uilyam Erskin. Bobur Hindistonda. – Т.: Cho'lpion, 1995.